

# **MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11217269>**

**Begmatova Pokiza Zayniddinovna**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotasiya.** Maqolada mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini shakllantirish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari samaradorligini ta'minlashning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, shuningdek, mahalliy budget xarajatlaridan oqilona va samarali foydalanish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** mahalliy byudjet; mahalliy byudjet daromadlari; mahalliy byudjet xarajatlari; mahalliy hokimiyat organlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar; hududlar; mintaqaviy iqtisodiyot.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi davrida mamlakatimizda hududlarni ijtimoiy iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, ularning mustaqilligini ta'minlash maqsadida davlat byudjetining tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy byudjetlarni xarajatlarini samarali boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora tadbirlar esa hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishga, mahalliy hokimliklarni huquq va majburiyatlarni kengayib borishi sharoitida ularning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilashga zamin yaratadi.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rolni

o‘ynaydi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarning samarasi mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog’liqdir.

Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, bozorlardan tushadigan daromadlar hamda boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar mahalliy byudjetlarining daromadlari hisoblanadi. Tuman hokimliklari binolarida “Innovatsiya va texnologiya markazi” uchun maxsus xonalar ajratish hamda mahalliy byudjet mablag’lari hisobidan zarur kompyuter texnikasi, aloqa vositalari, internet va boshqa zarur jihozlar bilan ta’minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini markazlashtirishni cheklash hamda bu boradagi vazifalarning bir qismini respublikadan viloyat, tuman darajasiga o‘tkazishga asosiy e’tibor qaratilmoqda, buning natijasida ko‘pgina vakolatlar mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlariga navbatma-navbat o‘tkazilib borilmoqda. O‘tgan davrda bu sohada ko‘p ishlar amalga oshirildi, biroq sohada kelgusida hal etilishi zarur bo‘lgan ko‘plab masalalar mavjud. Demak, iqtisodiyotning o‘sishini, hududlarning rivojlanishini hamda jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta’minlashdagi asosiy manba – bu mahalliy byudjet mablag’lari hisoblanadi. Islohotlar chuqurlashishi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan chora-tadbirlar hajmi kengayib boraveradi. Byudjet orqali moliyaviy ta’minlash yuzasidan munosabatlar ishtirokchilaridan biri-kredit muassasasi hisoblanadi. Kredit muaassasasida byudjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar uchun hisob raqam ochiladi. Kredit muassasasi byudjetni kassa ijrosida va moliyaviy intizomga rioya etish yuzasidan nazoratni amalga oshirishda ishtirok etadi. Byudjet orqali moliyalashtirishning uchinchi ishtirokchisi bo‘lib byudjet mablag’larini taqsimlovchi byudjet tashkiloti hisoblanadi. U o‘z tashkiloti uchun ajratilgan byudjet mablag’larini tasarruf qiladi, ularning o‘zidan quyida turadigan taqsimlovchilarga

o‘tkazadi. Davlatning moliyaviy faoliyatini boshqarishning eng tezkor va yuqori natija beradigan usullari, mexanizmlari sifatida huquqiy normalar chiqarish, ularni qo‘llash orqali boshqarish ma’qul deb e’tirof etilgan bo‘lib, bu usul davlat majburlovini, hokimiyat kuchini o‘zida mujassamlashtirganligi uchun ham mamlakat iqtisodiy, moliyaviy, sohadagi voqeа-hodisalar va jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatish, ularni maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi yagona, bir butun mexanizmdan iborat bo‘lganligi munosabati bilan Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o‘z tasaarufida butun davlat moliyasiga nisbatan aniq belgilangan funktsiyalarni bajaradi. Masalan, ular o‘z hududlarida daromadlarning respublika byudjetiga kelib tushishini ta’minlaydi, tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag’lar doirasida davlat ehtiyojlari uchun asosiy jamg’armalar va vositalarni olish va qayta ishlash uchun kapital xarajatlarni amalga oshiradi. «Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o‘z vakolatlari doirasida tegishli ma’muriy-hududiy birliklar moliyasiga rahbarlik qilinishini ta’minlaydi. Shu bilan birga ular moliyaviy faoliyatining xususiyati va mazmuni bir-biridan farq qilib, bu ushbu organlarning vazifalari va huquqiy holatidagi farqlar bilan belgilanadi. Shularni hisobga olgan holda, davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni bir necha guruhlarga ajratish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining hokimiyat va boshqaruv, markaziy va mahalliy idoralari amalga oshiradigan moliyaviy faoliyat ular oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarga, berilgan vakolatlarga muvofiq turli shaklda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyasharoitida mahalliy byudjet hisobiga mablag’ bilan ta’milanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag’laridan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xulosa o‘rnida yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni rejalashtirish va ijro etishdagi huquqlarini kengaytirish lozim. Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning o‘zaro aloqalarini qonuniy asoslarini yanada takomillashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shuni alohida qad etish kerakki, mahalliy suv

resurslaridan foydalanganlik uchun va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan qat’iy soliqlar to‘liq mahalliy byudjet ixtiyoriga o‘tkazilgan.

Daromadlar bilan bir qatorda xarajatlar ham byudjetlar o‘rtsida taqsimlanadi, ya’ni har bir byudjet o‘z xarajat yo‘nalishiga ega. Hozirda, mamlakatimizda Vazirlar Mahkamasining mahsus qarorlari bilan tasdiqlangan «Kam ta’minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida» gi hamda «Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilinganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomlar asosida fuqarolarning o‘zini – o‘zi boshqarish organlari tomonidan tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mahalliy byudjetlar ko‘p sonli bo‘lib, byudjet tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda mahalliy moliya va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mahalliy byudjetlar alohida o‘rin egallaydi. O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, mahalliy byudjetning o‘z daromadlari qanchalik ko‘paysa, uning moliyaviy imkoniyatlari shunchalik barqarorlashadi. O‘z navbatida mahalliy iqtisodiyot qancha rivojlansa daromadlar shuncha ko‘p tushadi.

Umuman olganda mahalliy byudjetlar davlat byudjetida ulkan ahamiyat kasb etib, aynan mahalliy byudjetlar sifatida bo‘linib moliyalashtirish davlat byudjeti nazoratini bir qancha yengillashtiradi va o‘z o‘rnida nazoratni kuchaytirishga imkon yaratishiga amin bo‘ldik.

O‘z navbatida tuman va shahar byudjetlaridan iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha veterinariya laboratoriyalari va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stantsiyalari, shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta’mirlash ishlari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi ob’ektlarida ta’mirlash ishlari, aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari moliyalashtiriladi. Davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish bugungi kunda byudjet islohatlarining yirik yo‘nalishlaridan biridir. Respublikamizda davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlarining yana bir

yo‘nalishi byudjetning bajarilishini avtomatlashtirilgan g’aznachilik tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda byudjet tizimining barcha bosqichlarida yagona tashkiliy- huquqiy asoslardan, standart va byudjet texnologiyalaridan foydalanish, soliq to‘lovchilarning pulini iqtisod qilish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun g’aznachilik tizimi yaratiladi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi g’aznachilik tizimini O‘zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliya axborot tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to‘g’risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta’minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Кабулов Х. А. Приоритетные вопросы стратегии развития доходного потенциала региона //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2020. – №. 9-1. – С. 147-150.
2. Кобулов Х. А. Место и роль доходов местного бюджета в улучшении доходного потенциала региона //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2020. – №. 5-3. – С. 34-38.
3. Malikov T. et al. Methodological approaches to assessing and forecasting the tax potential of the region //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 11. – С. 7056-7060.
4. Malikov T., Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy //International Journal of Economic Growth and Environmental Issues-ISSN. – С. 2321-6247.
5. Shokirovich K. A. DIRECTIONS FOR OPTIMIZING LOCAL BUDGETS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 22. – С. 190-196.
6. Akbarov M. A. et al. PRIORITIES FOR DEVELOPING THE INCOMES POTENTIAL OF THE REGIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 1334-1337.

7. Абдукаримович Қ. ҲУДУД ДАРОМАД САЛОХИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШДА “БЮДЖЕТ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” ВА “МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 384-400.

